GLOSSARIY

1. ***Amfiteatr*** – (yunonchadan Amphitheatron – ikki tomonlama tomosha) ommaviy tomoshalar: teatr spektakllari ko'rsatiladigan Qadimgi Rim monumental binosi hisoblanadi.
2. ***Asosiy sport inshooti*** - bu jismoniy tarbiya va sport amaliy mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan inshootdir.
3. ***Badminton maydoni*** - tekislikda joylashgan sport inshootlariga kirib, uning ustiga maxsus qoplama, maxsus jihozlar va o'lchamlari tushiriladi
4. ***Basketbol maydoni*** - maxsus er uchastkasida rejalashtirilib, to'g'ri to'rtburchak shaklida, alohida qoplama yotqizilgan (yog'ochli yoki sintetik, rezina-bitum va tuprokqa), maxsus belgili va mos ravishda jihozlangan bo'ladi.
5. ***Ventilatsiya*** - xonani shamollatish.
6. ***Vestibyul*** - ma'muriy, maishiy va jamoat binolarida va ba'zi kata turar-joy uylarida tashqaridan kiraverishdagi keng xona bo'lib, eshikni foe bilan o'zaro bog'laydi, ko'proq kiyim-kechak echiladigan, gazeta-jurnal sotiladigan joy sifatida foydalaniladi.
7. ***Voleybol maydoni*** - to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, o'yin maydoni uzunligi 18 metr, eni 9 metr bo'lishi kerak.
8. ***Gazon*** -maysazor.
9. ***Yopma inshoot*** -yil davomida mashq va namoyish ishlarida unumli foydalanish joyi.
10. ***Yordamchi sport inshooti*** - shug'ullanuvchi va musobaqa qatnashchilariga xizmat qiladi. Bu inshootlarga garderob, echinish-kiyinish xonasi, dush, uqalash xonasi, uslubchilar xonasi, murabbiylar xonasi, tibbiyot xodimlari xonasi, hakamlar xonasi, sportchilar uchun yuvinish xonalari va boshqalar kiradi.
11. ***Qadimiy Rim davri stadionlari*** -ko'pgina stadionlar va sport inshootlari Rim imperiyasining shakllanayotgan vaqtiga to'g'ri keladi (eramizning boshi). Bu vaqtda Ellenik davri stadionlarining ko'pginasi qayta qurildi.
12. ***Kollizey*** - Rimda miloddan oldingi 125 yilda qurilgan bo'lib, 50000 tomoshabinlarga mo'ljallangan.
13. ***Loja*** - teatr va kontsert zallaridagi alohida joy. Lojalar asosan, parter atrofiga joylashtiriladi. Ular zalga go'zallik va salovat beradi, zal akustikasini yaxshilaydi. Dastlab loja XVI-XVII asrlarda Evropadagi yirik teatr binolarida qurilgan, keyinroq boshqa joylarda ham rusm bo'lgan.
14. ***Maket*** - arxitekturada qurilishi ko'zda tutilgan yoki qurib bitkazilgan bino, ansambl shahar va boshqalarni kichraytirib, tayyorlangan tasvir, arxitektura kompozitsiyasini tekshirish va takomillashtirishga yordam beradi.
15. ***Motellar*** - turar joylari aksariyat bir xonali va bunda yotoqxonasi va mujassamlashgan sanitariya xonalari vannasi yoki dush bilan loyihalanadi.
16. ***Olimpiada o'yinlari*** – qadimiy Grek jismoniy madaniyati rivojlanishining ahamiyatli tarafi hisoblanadi.
17. ***Sport inshootlari*** - bu maxsus qurilgan va o'z faoliyatida ko'pqirrali madaniy va sport tadbir va anjumanlari o'tkaziladigan maskandir.
18. ***Sport yadrosi*** - bu ochiq sport kompleksi bo'lib, o'z ichiga sport o'yinlari uchun maydon, maydonchalarni, yugurish yo'lakchalarini, shuningdek, maxsus sakrash va irg'itish uchun joylarni oladi.

19. ***Stadion*** - tomashabinlar uchun mo'ljallangai tribunali asosiy sport arenasi.
20. ***Suzish suv havzasi*** - to'g'ri to'rtburchakli sun'iy yoki tabiiy suv havzalaridan tashkil etiladi.
21. ***Term*** - (hammom) Qadimgi Rimda bu inshootga katta e'tibor berilgan. Bu suzish, cho'milish uchun mo'ljallangan yirik suv havzasi bo'lib, eramizning I asri va II asri oralig'ida qurilgan.
22. ***Tomoshabin uchun inshoot*** - bunga tribunalar (o'rnatilgan yoki qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan), skameykalar, stullar, asosiy inshoot oldida turish uchun joylar (sport yadrosi, basseyn, maydon) va xizmat ko'rsatish xonalari (pavilonlar, foye, bufetlar, qahvaxona, tibbiy xizmat xonasi va boshqalar) kiradi.
23. ***Tribunalar*** - sport arenalari bosh rejalarida ikki yon tarafdan oval ko'rinishli yoki oval ko'rinishida quriladi.
24. ***Universal sport inshootlari*** - sporning taraqqiy etishi natijasida va yil davomida sport turlari (gimnastika, engil va og'ir atletika, boks, sport o'yinlari, velopoygalar, xokkey, konkida figurali uchish va boshqalar) bo'yicha o'quv-mashqlarini va namoyish ishlarining olib borilishi talablari asosida paydo bo'ldi va keng tarqaldi.
25. ***Futbol maydoni*** - to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uzunligi 90 *m* dan 120 *m* gacha va eni 45 *m* dan 90 *m* gacha bo'lishi ko'zda tutilgan.
26. ***Ellenik davr stadionlari*** - davlat ijtimoiy hayotida etakchi rol o'ynagan. Bu davrdagi stadionlar o'rindiqsiz qurilgan.
27. ***Ellenistik davr stadionlari*** - ommaviy hayotda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Undan tashqari ular shahar aholisi uchun tomosha ko'rsatadigan inshootga aylanadi.